

TARBIYAVIY ISHLAR JARAYONIDA TYUTORNING PEDAGOGIK MAHORATI

“Pedagogika” kafedrası
katta o’qituvchisi Saparboeva D.S

Annotatsiya: Ushbu maqolada tyutor pedagogik mahoratining mazmuni, vazifalari, shakllari, tarbiya jarayonini tashkil etish jarayonlari ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan.

Tayanch so’zlar: Ta’lim-tarbiya, milliy ong, tyutor, pedagogik mahorat, tafakkur, kasbiy faoliyat, talaba, malakali mutaxassis, xatti-harakat, manfaat, ehtiyoj, did-farosat, qobiliyat, shaxs, burch, bilim.


Bugungi kunda oliy ta’limni faoliyatini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya sohasida tyutor mahoratini yuksak darajaga ko’tarish muhim hisoblanadi. Buning uchun tyutorlar ta’lim-tarbiya jarayonini chuqur egallagan bo’lishi bilan birga xalq hayoti, manfaatlari, so’rovlari va ehtiyojlariga xizmat qilishi, yoshlarning ma’naviy dunyosini yaxshi bilishi va ularda mustaqil fikrlash, milliy ong va tafakkurni tarbiyalash uning asosiy vazifasidir.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tyutorning pedagogik mahorati, tadbirlarni kasbiy ustalik, mohirlik, san’atkorona amalga oshirishda talaba jamoasini ruhiy va ob’ektiv jihatdan o’ta mohirlik bilan tashkil etish metodikasini o’z qobiliyati, ongi, amaliy ko’nikmalari, kasbiy faoliyatida ilmiy, uslubiy jihatdan yondoshishi, eng murakkab ishlarni bajarishi, shaxsni kamolga yetkazish, ma’naviy-kasbiy ehtiyojlarini qondirish va rivojlantirishga e’tibor qaratish, o’z oldiga yangi talablar qo’yish, aniq maqsadlarni ishlab chiqish, tarbiya jarayonining shakllari va usullarini takomillashtirish, mustaqil ta’lim egallashi yetakchi o’rinni egallaydi. Chunki, tyutorning tarbiya jarayonining metodik darajasini amalga oshirishda nazariy va metodika bilimlarga ega bo’lishi, mazmuni, shakllari va usullarini pedagogik, axborot, kompyuter texnologiyalari asosida amalga oshirishi uning yetukligi va kasbiy burchini namoyon etadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, talaba qalbiga yo’l, avvalo, ta’lim-tarbiya beruvchi tyutor mahoratidan boshlanadi. Shuning uchun ham tyutor ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosdan foydalanishi, buyuk zotlarning oliyjanob mehnatini hurmat bilan talabalarga tushuntirishi, yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas’uliyatli vazifani ado etishi kabilar yoshlarning ma’naviy dunyosini hamda ularning yetuk shaxs va malakali mutaxassis bo’lib shakllanishida ulkan ahamiyatga ega.

Shu jihatdan ham tyutor birinchi navbatda o’zining pedagogik mahoratini shakllantirishda tarbiyaning samarador bo’lishida, jamoada va talabalarda o’zining qobiliyatlari, did-farosati, maqsadlari, pedagogik mahorati bilan talabalarni turli topshiriqlarni bajarishga, o’quv materiallarini to’liq o’zlashtirishga, voqea va hodisalarni tushunish kabilarni amalga oshirishda faol bo’lishga o’rgatishi lozim. Shu bilan birga tyutor ba’zibir talabalarga alohida e’tibor berishi uning faoliyatida kechiktirib bo’lmaydigan holat hisoblanadi. Chunki, guruh jamoasida turli voqealarga boy va turli vaziyatlar uchrab turadi. Bunday sharoitda tyutor tezlik


bilan talabalarning ruhiy xususiyatlarini e'tiborga olib, ular bilan axborot almashib turishlari o'z samarasini beradi. Shu jihatdan ham tyutorning pedagogik mahoratida uning odob madaniyati, talabalar faoliyatini tashkil qilish va pedagogik ta'sir etish natijalarini nazorat qilish kabilar muhim o'rin tutadi. Ushbu jarayonda tyutorning nutq madaniyati, diqqatni to'g'ri taqsimlash, xotira, ijodiy tafakkur, qat'iylik, o'z – o'zini boshqarish, ovozi, mimikasi, tashkilotchilik qobiliyatlari, qayta axborot olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi, muloqotning oshkoraligi, to'g'riligi, uning haqiqatgo'yligi, uning yaxshi ko'radiganlari bormi yoki yo'qligini talabalar kuzatadilar. Shu jihatdan ham muloqot jarayonlari qabul qilingan normalar va belgilangan qoidalar asosida amalga oshirish u yoki bu vaziyatda o'zini qanday tutish, talabalarga ishonch hosil qilish, o'zaro munosabatlar, xatti-harakatlar, bo'lib o'tgan voqea-hodisalar, tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish, o'zaro yordam va hamkorlik qilish topshiriqlarni bajarish kabilar o'z samarasini beradi. Tyutorning pedagogik mahorati uning mustahkam bilimlari va tashkilotchiligi ma'ruza, seminar, fikrlar almashuvi, seminar-refleksiya, mustaqil ish, to'garak mashg'ulotlari, interfaol metodlar, strategiyalar, o'quv loyihasi, keys-stadi, multimedia, videoroliklar, elektron qo'llanmalar, tanlovlar, ko'rgazmalar, innovatsion yarmarkalar va boshqa kabi vositalarni qo'llashda namoyon bo'ladi.



Bugungi kunda yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni har tomonlamma kamolga yetgan, barkamol inson qilib tarbiyalash, ularda iymon, e'tiqod, mehr, vatanparvarlik, do'stlik, insonga cheksiz muhabbat, muruvvatlilik, qanoatlilik, sabr-toqatlilik, saxiylik, milliy g'urur kabi fazilatlarini shakllantirishda tyutorning pedagogik mahorati benihoyat kattadir. Chunki, tyutor tarbiya jarayonlarini tashkil etish asosida komil insonni voyaga yetkazadi. Tarbiya orqali talabalarning ongi va irodasini o'stirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o'ziga xos mazmuni amalga oshiradi. Ya'ni, tyutor talabaga tarbiya berib, katta bo'lganda baxtli bo'lishini ta'minlaydi. Talabalarni ma'naviy boy,

jismoniy jihatdan sog'lom qilib tarbiyalashda tyutor chuqur bilim, keng mahorat va tarbiyachilik-san'atini namoyon etadi. Albatta bunda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, islom ta'limoti, o'zbek milliy urf-odatlariga amal qilish asosida talaba shaxsini shakllantiradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki tarbiyaviy jarayon ongli, mas'uliyatli faoliyat bo'lib, unda tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni komil inson qilib yetishtirishda unga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Tyutor talabalar jamoasining tarbiyaviy darajasini o'rganib, unga ta'sir ko'rsatish mahoratiga ega bo'lishi, tarbiyaviy tadbirlarni ularning ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta'sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirishi, takomillashtirishi, tarbiyaviy ishlarni samaradorligini oshirishda o'z bilimini va mahoratini boyitib borish lozim. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish-tyutorga katta mas'uliyatni yuklaydi. Bu jihatdan tyutorning pedagogik mahorati davr talabiga javob bermog'i, tarbiya jarayonida iste'dodi, ilmi va tajribalari har bir talabaning betakror va o'ziga xosligini hurmat qilish, uning ijtimoiy huquqiy va erkinliklarining e'tiborga olish imkoniyatini beradi. Tyutor tarbiya jarayonida milliylikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanishi, jahon madaniyatining ilg'or tajribalariga asoslanishi, talabalar faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish, qiziqarli, to'laqonli talabalarning yosh jihatlarini e'tiborga olib, ular faoliyatida mehnat, xayriya, ijtimoiy foydali tadbirlarni tashkil etish lozimki, natijada talabalar o'zlari xohlagan ishga qo'l ursinlar, muvaffaqiyat hissini tushunib o'zlariga ishonchlari ortsin, axloqan barqaror bo'lsin.

Xalqimizda tarbiyachilik san'ati qadimdan juda yuksak darajada rivojlangan. Sharq mutafakkirlari, pedagogik olimlari barkamol insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligini, uning mohiyatini va mazmunini asoslab berganlar.



Shuni alohida ta'kidlash kerakki yuksak taraqqiy topgan yangi O'zbekiston davlatini barpo etishda bu siyosat jamiyat hayotining asosi sifatida odamlarda kuch, insof, diyonat, ezgulikka ishonch, adolat, farovon turmushga erishishda sharqona fikr yurita bilish, ish bilan harakatining birligi, ijodiy faoliyatni takomillashtirishda muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan ham tarbiyaning yetakchi maqsadi shaxsning har tomonlama kamolotga erishishda jismoniy, axloqiy, siyosiy, estetik qarashlar, falsafiy dunyoqarashni shakllantirish, hayot mazmunini tushunib olish o'z-o'zini iroda va nazorat qila bilishni shakllantiradi. Ushbu jarayonda talabalarni boy madaniyat bilan tanishtirish, ularda madaniy va diniy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarni rivojlantirish, malakalarni oshirish, estetik tushunchalarni kamol toptirish tyutor mahoratida chuqur o'rin egallashi lozim. Tyutor har bir talabaning bilimdonliklarini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularning ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoit hozirlashlari maqsadga muvofiqdir.

Xalqimizning “Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay” – degan naqlini talabalar qalbiga singdirish mas'uliyati tyutorga topshirilgan. Tyutorning pedagogik mahoratini samaraga ega bo'lmog'i uchun ko'p jihatdan shaxs xususiyatlarining shakllanganligi, shaxs yo'nalishini aniqlanganligi va kasbiy mahoratning tarkib topganligi bilan xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Зинченко, А. П. Тьютор: менеджер — маркетолог — продавец : расширенный взгляд / А. П. Зинченко // Система обеспечения качества в дистанционном образовании. — Жуковский : МИМ ЛИНК, 2002.
2. Колосова, Е. Б. Тьютор как новая педагогическая профессия / Е. Б. Колосова. М.: Чистые пруды, 2008.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Маънавий маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни янги босқичга кўтариш тўғрисида ПҚ-3160 қарори. 2017 йил 28 июль. Lex.uz
4. Улфат Маҳкамов Ўқувчиларнинг ахлоқий маданиятини шакллантириш муаммолари. – Тошкент Ўзбекистон Фанлар академиясининг “Фан” нашриёти, 1995. -200 б.